

CHIZMACHILIK VA DIZAYN FANLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

B.R.Haqberdiyev

AndDU TSMG kafedrası mudiri

Sh.F.Otaxonova

AndDU TSMG 2-bosqich talabasi

D.I.Qodirova

AndDU RTD 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolamiz orqali o'rta maktablarda chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishda o'quvchilar fazoviy tasavvurlarini oshirish, o'quvchilarda bu ikki fanga tegishli bo'lgan bog'liqliklarni aniqlab shu manbalardan foydalanishni yoritib berganmiz.

***Kalit so'zlar;** chizmachilik, dizayn, integratsiya, o'qitish, tasavvur, ixtiro, xotira, metodika, detal, aksonometriya, shriftlar, monografiya.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы подчеркнули использование этих ресурсов для повышения пространственной осведомленности учащихся при обучении рисованию и дизайну в средних школах посредством интеграции, а также для выявления связей между этими двумя дисциплинами.

***Ключевые слова:** рисунок, дизайн, интеграция, обучение, воображение, изобретение, память, методология, детализация, аксонометрия, шрифты, монография.*

ABSTRACT

In this article, we have highlighted the use of these resources to increase students' spatial awareness in the teaching of drawing and design in secondary schools through integration, and to identify the connections between these two disciplines.

***Keywords:** drawing, design, integration, teaching, imagination, invention, memory, methodology, detail, axonometry, fonts, monograph.*

KIRISH

Muhandislik grafikasini o'qitishda mavzularini o'rganishning samarali usuliari, chizmaiami o'qish va bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, grafik masalalarning roli va ulardan o'qitishda foydalanish uslublari kabilar o'rganiladi. Muhandislik grafikasini o'qitish chizmachilik kursining nazariy masalalarini o'rganadi. Bunda:

chizmachilik kursini maktabda o'qitishning maqsad va vazifalari; o'qitishning tashkiliy shak va metodlarini ishlab chiqish; o'qitishning metodik vositalari (o'quv - ko'rgazmali qurollar va jihozlar)ni tanlash, ishlab chiqish va tadqiqot qilish; chizmachilikning boshqa fanlar bilan aloqalarini (matematika, geometriya, dizayn.) hamda kurs mazmunini ochib beruvchi tushunchalarni aniqlash va hokozalar kiradi.

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalab o'qitishnida bu ikki fanni aloqadorligini o'rgatish talabalarga dizayn, chizmachilik va arxitektura fanlarining asosiy turlari va ularni bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Talabalarining fazoviy tasavvurlarini shakllantirishdan tashqari, bunday ikki fanni integratsiyalash ularga o'zlarining qiziqishlarini, keyingi ta'limdagi ixtisoslik yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XVIII asrning oxirlari va XX asrni haqli ravishda —dizayn asrini deb atash bo'ladi. Dizayn fani ham o'z tarixi va insonning predmetlar olami muhitiga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi madaniy, falsafiy, psixologik nuqtai nazardan o'z nazariyasiga ega bo'lgan fan sohasi ekanligini e'tirof etish mumkin. Bu sohadagi dunyo olimlari, xorijiy va mamlakatimiz tadqiqotchilarining izlanishlarini umumlashtirib, boshqa gumanitar va tabiiy fanlar, texnika yutuqlari, pedagogik, psixologik metod va texnologiyalarni qo'llab kelishmoqda.

Dizaynni ko'pchilik turli atamalar orqali atashadi; —dizayn inglizcha so'z bo'lib;

- | | |
|-------------------------|--|
| - loyiha, | - chizma, |
| - obraz, | - hisob-kitob, |
| - fikr, | - konstruksiya, |
| - g'oya, | - eskiz, |
| - g'ayrioddiy faoliyat, | - rasm, |
| - reja, | - naqsh, |
| - maqsad, | - kompozitsiya san'ati, |
| - mo'ljal, | - san'at asari kabi ma'nolarni
anglatadi. |
| - ijodiy ko'zlama, | |

Dizayn – bu bir qator maxsus loyihalash faoliyati bo'lib, badiiy buyumlar ijodkorligi va ilmiy asoslangan muhandislik amaliyotini sanoat ishlab-chiqarishi tizimida birlashishi. Muhandislik grafikasi siklidagi arxitektura - qurilish chizmachiligi uslublarining shakllanishiga, birinchi navbatda, bino rejasini chizmasi, zamon ruhiyati, diniy qarashlar, obrazli fikr yuritish jarayonlari, davlat tizimi, ishlab-

chiqarish va ijtimoiy munosabatlar, milliy o'ziga xoslik hamda tabiiy muhit, iqlim sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Muhandislik grafikasi va dizayn fanlarini integratsiya orqali o'qitishni takomillashtirishni orqali:

Chizmachilik va dizayn fanlarini aloqadorlik turlari, arxitektura-qurilish chizmachiligi uslublari asoslarini o'rganish;

Chizmachilik va dizayn fanlari tarixini integratsiyasida jahonga mashhur arxitektor - quruvchilarning asarlari bilan tanishish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini tendentsiyalari g'oyasini shakllantirish;

Chizma geometriya va dizayn fanlarini integratsiyalashda geometrik figuralarni fazoda grafik tasvirlash va ularning dizaynda birlamchi ko'nikmalarini shakllantirish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalashda talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi, eskizlar va loyihalarni yaratishda ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda loyihalar va eskizlarni hayotda sinab ko'rish, shuningdek, loyiha faoliyatini introspektsiya qilish uchun dizayn tanlovlarida ishtirok etishga jalb qilish.

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda estetik didni, rang va shakl uyg'unligi tuyg'usini, foyda va funkcionallik bilan go'zallikni tarbiyalash;

Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda fikrlashni rivojlantirish. Chizmachilik va dizayn fanlarini integratsiyalash orqali takomillashtirishda strukturaning fazoviy ko'rinishini rivojlantirish .

XULOSA

Chizmachilik va dizayn fanlarini bir-biriga moslari tanlanib integratsiyalash mumkin, chunki unda bu ikki fanning turli sohalari (tasviriy san'at, fizika, matematika, qurilish, arxitektura va boshqalar) bo'yicha bilimlar to'plami talabalarda mavjud. Integratsiyalashning o'ziga xos xususiyati – fanlarni qaysidir qismlarini ko'p yoki qisqa qilib to'ldirishdan iboratdir. Chizmachilik va dizayn fanlarini bir-biriga bog'liqliklariga bag'ishlangan mavzular mavjud bo'lib, ularda talabalar o'zlarining sevimli mashg'ulotlariga muvofiq o'zlarini ochishlari mumkin.

REFERENCES

1. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
2. Haqberdiyev, B. R., & Rustamov, U. (2021). Creative design of buildings and structures. *current research journal of pedagogics (2767-3278)*, 2(09), 76-78.

3. Haqberdiyev, B. R. (2020). Contents, value of interdisciplinary relations. *Solid State Technology*, 63(6), 203-206.
4. Хакбердиев Б.Р.Метод моделирования в интеграции дисциплин дизайна и инженерной графики. вестник Ошского государственного университета № 3, 2018, 23.
5. Nasritdinova, U., & Khahkberdiyev, B. (2020, July). Results theoretical study of the form of a front surface of a chisel-cultivator stand. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 883, No. 1, p. 012108). IOP Publishing
6. Valiyev A.N., Haqberdiyev B.R., Gulomova N.X., Boboyeva Z.A. “Drawing” (mechanical drawing) Tashkent 2020
7. Haqberdiyev Bakhtiyor Rustamovich Designing of architectural elements DOI: <http://doi.org/10.5281/zenodo.4716849> Primedia E-launch LLC, 5518 Flint St, Shawnee, 66203, USA